O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 05-06-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

208181 - SONLI

Obyekt nomi: “Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Parkent ko‘chasi 331/1 uyda joylashgan “Toshkent shahar hududiy elektr tarmoqlari” AJga tegishli binoni rekonstruksiya qilish” ishchi loyihasi	
Buyurtmachi:	HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI AJ
Bosh loyihachi:	"SHAHAR PROEKT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender savdo natijalari buyicha aniqlanadi
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	013750

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-avgustdagi 527-F/10-sonli farmoyishi.

1.2. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2023-yilda buyurtmachi “Toshkent shahar hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.3. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2023-yil 19-dekabrdagi 1726-1726290-99296-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. 2023-yilda “GLOBUS-GEO-SERVIS” MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

1.5. 2023-yilda “ZAMIN-POYDEVOR” MChJ tomonidan o‘tkazilgan mavjud bino va inshootlarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish va instrumental o‘rganish bo‘yicha xulosasi.

1.6. “Hududgaz Poytaxt” GTF tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 2023-yil 8-noyabrdagi 041331-sonli texnik sharti.

1.7. “Hududiy Elektr Tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar hududiy filiali” elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2023-yil 31-oktyabrdagi 05-1118-sonli texnik sharti.

1.8. “Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJning 2023-yil 24-oktabrdagi 270/4-3567-sonli texnik sharti.

1.9. Loyihachi va buyurtmachi o‘rtasida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2023-yil 27-oktyabrda tuzilgan 20-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra “ishchi loyiha” ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. “SHAHAR PROEKT” MChJ tomonidan 2023-yilda “Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Parkent ko‘chasi 331/1 uyda joylashgan “Toshkent shahar hududiy elektr tarmoqlari” AJga tegishli binoni rekonstruksiya qilish” ob’ektiga ishlab chiqilgan energiya samaradorligi.

2.3. “SHAHAR PROEKT” MChJ tomonidan 2023-yilda “Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Parkent ko‘chasi 331/1 uyda joylashgan “Toshkent shahar hududiy elektr tarmoqlari” AJga tegishli binoni rekonstruksiya qilish” ob’ektiga ishlab chiqilgan Issiqlik texnik hisobi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Tashqi havo haroratining qishki xisobi – minus 140S.

Normativ shamol bosimi - Wo = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - Sn = 0,50 kPa.

Qurilish maydonining zilzilabardoshligi – 9 ball.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

“Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Parkent kuchasi, 331-uyda joylashgan “Toshkent shahar hududiy elektr sohalari” AJ ha tegishli binoni rekonstruksiya qilish” ob’ektining ma’lumotlari.

- Geografik koordinatalari: 41°29'80"N 69°35'14"E.
- Ish tor sharoitda amalga oshiriladi.
- Koordinatalar tizimi shartli. Balandlik tizimi shartli.
- Bosh rejaning asosiy ishchi chizmalarini ishlab chiqishda “GLOBUS-GEO-SERVIS” xususiy korxonasi tomonidan o‘tkazilgan M1:500 mashtabdagi topografik suratga olish materiallari hamda muhandislik bo‘yicha xulosadan foydalanilgan va buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan geologik tadqiqotlar dan foydalanilgan.

Bosh reja mavjud binolarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Binoning 4-qavatli, hududi ko‘kalamzorlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish rejalashtirilgan.

Loyihada binodan tashqari avtomobillar saqlash joyi, transformator nimstansiyasi, qozonxona, chegara devorlari rejalashtirilgan.

3.3. Arxitektura yechimlari.

Loyiha to‘rt qavatli binoni rekonstruksiya qilishni nazarda tutadi. Loyihalanayotgan binosi 4 qavatli, yerto‘lali, o‘qlar bo‘yicha o‘lchamlari 39,0x89,4 metrni tashkil qiladi. Bino qavatlarining balandligi poldan shiftgacha 2,8 metr, yerto‘la qavatiniki 2,2 metrni tashkil qiladi.

Rejadagi ma’muriy bino, o‘lchamlari 39,0x89,4 o‘qlarda binoning birinchi qavatida 48 o‘rinli ishchilar oshxonasi, tibbiyot xonasi, arxiv xonalari, maxsus mutaxasislar xonalari, vestibyul, farrosh xonasi, sartaroshxona, minimarket, kitob va xona buyumlari do‘koni, bankomat, bufet, chet tillar xonasi, sanitar gigenik xonasi, oshxona, kompyuter xonasi, shifokor xonasi, yo‘lak, zinapoya va boshqa xonalar mavjud.

Binoning ikkinchi qavatida direktor xonasi, direktor urinbosar xonasi, bosh muxandis xonasi, bosh muxandis urinbosar xonalari, majlislar zali, “Ma’naviyat va ma’rifat” dam olish xonalari, xonasi, zinapoya, yo‘laklal, maxsus xonalar va boshqa xonalar mavjud.

Binoning 3-qavatida bosh xisobchi, xisobchi yordamchilari xonalari, direktor urinbosar xonasi, maxsus bo‘lim xonalari va boshqa xonalar joylashgan.

Binoning 4-qavatida xisobchi yordamchilari xonalari, qurilish bo‘limi direktor xonasi, ishchilar yotoqxonalari, 72-o‘rinli majlislar zali, maxsus bo‘lim xonalari va boshqa xonalar joylashgan.
Binoning yerto‘la qismida texnik xonalar, nasos xonasi, elektr xonasi joylashgan.
Ichki bezatish ishlarida quyidagi zamonaviy materiallardan foydalanilgan:
Shiftlar-armstrong, plastik va gipsakarton.
Pollar-relin, itologranit, sopol plitkalar, keromogranit.
Devorlar-sapol plitkalar, suvli emulsiya.
Oynalar-palastikli.
Vitrajlar-qalinli 10 mm oynali.
Eshiklar-MDF va alyuminli.
Tashqi bezatish ishlarida loyihalash topshirig‘iga asosan alyupan materialidan foydalanilgan.
Texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar:
Qurilish maydoni – 1758,3 m2.
Umumiy maydoni – 4643,76 m2.
Qurilish hajmi – 17795,5 m3.
3.4. Konstruktiv yechimlar.
Binoning konstruktiv yechimi bo‘yicha loyihaviy yechimlari quyidagicha:
- Poydevorlar monolit temir-beton lentasimon poydevorlardir.
- Ora yopma - yig‘ma temir-beton dumaloq ichi bo‘sh plitalar t=220mm.
- Tashqi devorlar-g‘ishtli;
- Peremichkalar monolitik temir-betondir.
- Oraliq devorlar-g‘ishtlik va gipsakartondan;
- Zinapoyalar-yig‘ma temir-betondan.
- Tom-profnastildan.
3.5. Qurilish baxosini xisoblash.
Qurilish-montaj ishlarining qiymatini hisoblash shartnomaviy joriy narxlarda ShNQ 4.01.16-09 “Qurilish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash bo‘yicha qoidalar”ga muvofiq tuzilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ichki muhandislik tizimlari.
Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi, yong‘inni avtomatik o‘chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:
- Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 20-apreldagi 115513795-sonli xulosa);
- ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi toshkent shahar filiali tomonidan 2024-yil 16-fevralda berilgan 01-02/14-129-sonli Davlat ekologiya ekspertizasi xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra **27 394 449 660** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **1 803 752 335** so'mga kamaytirilib, **25 590 697 325** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **17 273 030 591** so'm
Asbob-uskunalar: **5 575 806 306** so'm

QQS: **2 741 860 428** so'm

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga 2024-yil buyurtmachining loyixaviy yechimlariga izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy *(lokal)* ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- asosiy qurilish materiallari, quruvchi – ishchilarning ish haqlari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlariga aniqlik qiritildi;
- loyixaning AR, KJ, OV, VK, ES, PS, PB va GP ko‘rib chiqildi va kamchiliklar bartaraf etildi.

6.3. Ekspert tekshiruvi natijalariga ko‘ra QQS bilan, buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 27 394 449,660 ming so‘m miqdorida, topshirilgan ishlar qiymati 1 803 752,335 ming so‘mga kamaytirilib, 25 590 697,325 ming so‘mni tashkil etdi, shu jumladan:

Qurilish qiymatining pasayishi qurilish materiallari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlari va boshqalarga aniqlik kiritish hisobidan kelib chiqdi.

Import qilingan uskunalar va materiallar narxlari ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmadi.

6.4. Buyurtmachiga tavsiya etiladi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar yuqoridagi ushbu talablar bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu yig‘ma ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi”.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Parkent ko‘chasi 331/1 uyda joylashgan “Toshkent shahar hududiy elektr tarmoqlari” AJga tegishli binoni rekonstruksiya qilish”, smeta hujjatlari, ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning dastlabki qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Xudayberganov Xayrullo Ollaberganovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Kosherbaev Muratbek Abatovich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Komilov Shoyadbek Qudrat O‘g‘li, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Ubaydullayev Azizbek Baxodirovich, Musayev Rustam Talatovich, Ibragimov Ismoil Xabibullayevich